



THE ART OF MUSICAL PERFORMANCE IS A FORM OF CREATIVITY THAT PAVES THE WAY FOR THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF SOCIETY

Tokhir Shokirov

Senior Lecturer

FarDU Department of Music Education and Culture

toxir1304@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: society, spirituality, instrument, art, instrument, scholars, thinker, me'ros.

Abstract: This article contains information about the role of instrumental art in the spiritual rise of society and its Achaemenid nature. The opinions and research of instrumental scientists and thinkers on the instrument have been analyzed.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

CHOLG'U SAN'ATI — JAMIYATNING MA'NAVIY TARAQQIYOTGA YO'L OCHUVCHI IJOD SHAKLI

Tohir Shokirov

Kafedrasi katta o'qituvchisi

FarDU Musiqiy ta'lim va madaniyat

toxir1304@gmail.com

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jamiyat, ma'naviyat, cholg'u, san'at, cholg'ushunos, olimlar, mutafakkir, me'ros.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning ma'naviy yuksalishida cholg'u san'atining o'rni va uning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Cholg'ushunos olimlar hamda mutafakkir olimlarning cholg'u borasida fikrlari va izlanishlari tahlil etilgan.

ИНСТРУМЕНТАЛЬНОЕ ИСКУССТВО — ЭТО ФОРМА ТВОРЧЕСТВА, ОТКРЫВАЮЩАЯ ПУТЬ К ДУХОВНОМУ РАЗВИТИЮ ОБЩЕСТВА

Тохир Шокиров*Старший преподаватель**Кафедра музыкального образования и культуры ФарДУ*toxir1304@gmail.com*Фергана, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова:	Аннотация:
общество, духовность, инструмент, инструменталист, ученые, наследие.	В этой статье представлена информация о роли инструментального искусства в духовном подеме общества и его значимости. Были проанализированы мнения и исследования ученых-инструменталистов и ученых-мыслителей по инструменту.

Kirish. Ma'lumki, maqomlarga, xalq kuy va ashulalariga talab xalqimiz orasida tobora ortib bormoqda. Ana shunday talab va ehtiyojni qondirish maqsadida yetuk ijrochi mutaxassislarni tarbiyalash mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbek xalqining boy musiqa merosini o'rganish va uni keng omma ichida targ'ib qilish ishlari san'atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilari zimmasida bo'lmog'i zarur. Chunki bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy merosning ustozdan shogirdga bevosita o'tishida tabarruk zotlar ko'prik vazifasini o'tash bilan birgalikda, o'zlarining ijodlari bilan ham namuna bo'lganlar. Yosh avlodni tarbiyalashda, avvallambor, mutaxassis o'qituvchilar o'zlari barcha namunali xislatlarni mujassamlashtirgan bo'lmoqliklari zarur. Hamma sohada o'qituvchilar vijdonli, kamtar, ma'naviy va axloqiy pok, yoshlarga g'amxo'r, yaqindan maslakdosh, o'z kasblariga hurmat, e'tiborli va sadoqatli bo'lmoqliklari kerak. Yoshlarni ham ana shu fazilatlar bilan tarbiyalamoq, kelgusida barcha sohadagi kabi an'anaviy musiqa merosimizning borgan sari zargarona sayqallashuvida va rivojlanishida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bugun san'at dargohiga ilk bor qadam qo'ygan yosh yigit va qizlar musiqa san'ati sirlarini astoydil o'rganyaptilar. Ma'lumki, respublikamizning barcha musiqa dargohlarida turli ansambllar qatori o'zbek xalq cholg'ulari ansambli darslari ham olib boriladi. Ansambllarda ishtirok etish yosh musiqachilar uchun katta ijrochilik maktabini o'tashi shak-shubhasiz[1].

O'zbek xalq cholg'ularining tarixi qadimdan o'rganilib kelinadi. IX-XVII asrlarda yashab o'tgan O'rta Osiyo olimlarining risolalarida musiqiy cholg'ularning tavsifini, mashhur musiqachilar nomlarini, mashhur musiqiy asarlar nomlarini uchratish mumkin. O'zbek an'anaviy musiqasini yig'ish va o'rganish XIX asrning 70-yillaridan boshlab, keng miqyosda olib borila boshladi. Bu ishlarni asosan harbiy kapelmeysterlar olib borishgan. Ular orkestrda ishlash bilan birga, etnografik faoliyat bilan ham shug'ullanishgan. Birinchi navbatda, bular A.Eyxgorn va

F.Leysiklardir. Xususan, A.Eyxgorn turli guruhlarga kiruvchi 36 ta xalq cholg'usidan iborat katalogni tuzgan.

Adabiyotlar tahlili. Xalq cholg'ularini yig'ish va o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlarda mashhur kompozitor, etnograf va pedagog V.A.Uspenskiy chuqur iz qoldirgan. Uning faol ishtiroki va harakati natijasida 1919 yili Toshkentda musiqiy-etnografik bo'lim ochiladi va u bu bo'limga rahbarlik qiladi. Bu bo'lim olib borgan ishlardan biri xalq cholg'ulari kolleksiyasini yig'ish va ularning ijrochilik imkoniyatlarini o'rganish bo'ldi. O'zbek musiqasini o'rganish tarixida keng ko'lamdagi olim, iste'dodli folklorchi, pedagog V.M.Belyayevning xizmatlari ham kattadir. V.A.Uspenskiyning Turkmanistonda (1925-1926) o'tkazilgan ekspeditsiyasi materiallari V.M.Belyayevning Sharq musiqa madaniyatini o'rganishi uchun katta turtki bo'ldi. Musiqa nazariyasini o'rganishda V.M.Belyayev Sharq olimlarining musiqa haqidagi risolalarining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning o'zbek xalq cholg'ulari rivoji tarixi bo'limida olib borgan izlanishlari, ularni sinflashtirish va o'lchash ishlari katta qiziqish uyg'otadi. 38 1933 yili Moskvada V.M.Belyayevning "O'zbekiston musiqiy cholg'ulari" nomli kitobi nashr qilinadi. Unda 50 dan ortiq cholg'ularning tavsiflari berilgan. Kitobda birinchi marta o'zbek xalq cholg'ulari ilmiy darajada sinflashtirilgan. Xulosa qilib muallif quyidagicha fikrlaydi: o'zbek xalq cholg'ularining musiqiy madaniyatni rivojlantirishda keng qo'llash uchun ularni qayta ta'mirlash, nota yozuvini kiritish kerak. An'anaviy musiqa cholg'ularini o'rganish va ularda ijro etishni o'rgatish masalalari bo'yicha izlanishlarni F.M.Karomatov, cholg'ularni qayta ta'mirlash va modernizatsiya qilish borasidagi izlanishlarni esa A.I.Petrosyans olib bordilar. A.I.Petrosyans "Cholg'ushunoslik" kitobida xalq cholg'ularining asosiy guruhlarini, sinflashtirishni ilmiy asoslab bergan. Bu guruhlar oilalarini yaratib, ularning tuzilishini, texnik va badiiy imkoniyatlarini tavsiflab berdi. Shu bilan bir qatorda, ularni samarali qo'llash uchun amaliy maslahatlar ham berilgan. S.B.Saidiy Markaziy Osiyova va Yaqin sharq davlatlari milliy cholg'ulari klassifikatsiyasini yaratgan ilk (Cholg'ushunoslik "Morfologiya"si va Ergologiya"sini ilmiy jihatdan asoslab berganligi yuqorida keltirilgan. Ancha yillar mobaynida ta'lim uslubiyoti shakllandi.

Natija va muhokama. Xalq cholg'ularini qayta ta'mirlash va takomillashtirish natijasida tovush hosil qilishning texnik usullari, yangi ijrochilik ko'nikmalari ishlab chiqildi. Cholg'uda ijroning eshitish uslubidan nota yordamida ijro uslubiga o'tilishi o'quv repertuari ustida ko'p ishlashga, xalq cholg'ularida ijro maktablarini tashkil qilishga olib keldi. Xalq cholg'u ijrochilariga ta'lim berishning uslubiy va didaktik asoslarini ishlab chiqish xuddi shu yo'nalishda olib borildi. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ulari" kafedrası professor o'qituvchilari tomonidan bir qator fundamental darsliklar, o'quv qo'llanmalar, to'plamlar chop ettirildi. Xalq cholg'ularida ijrochilik maktablari paydo bo'ldi. Shu bilan birga,

xalq cholg'ulari orkestrini tashkil qilish va ishlash bo'yicha o'quv-qo'llanmalar yozildi. Shunday qilib, xalq cholg'ulari yo'nalishi bo'yicha musiqiy ta'limning boshlang'ich bo'g'ini uchun ta'lim asoslari shakllandi. Har qanday talaba butun o'quv yili mobaynida yetarli miqdorda keng umumta'lim va kasbiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Chunki, hammamizga ma'lumki, ko'pgina bitiruvchilarimiz o'z hayotlarini pedagogik faoliyat bilan bog'laydilar. Bu esa psixologiya, pedagogika, uslubiyot bo'yicha yaxshi tayyorgarlikni, keng dunyoqarashga ega bo'lishni talab etadi. Ammo shu paytgacha pedagogika tamoyillariga asoslangan, ta'limning o'ziga xosligini ochib beruvchi, ijrochilik madaniyati yutuqlarini ifodalagan umumiy va shaxsiy uslublar ishlab chiqilmagan. "Nashr qilingan ko'pgina darsliklar va o'quv qo'llanmalarda ta'limga tor ma'noda yondoshilgan. Hamma tavsiyalar cholg'uda ijro holatiga, tovush hosil qilishning texnik uslublariga, ijrochilikni egallashga doir bo'lib, o'quv-tarbiyaviy jarayon va pedagogik etika masalalari ham birmuncha yoritilgan"[2].

Lekin ta'limning tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy-ma'rifiy yo'nalishi, ilmiyligi va shu kabi dolzarb masalalarga kamroq e'tibor berilgan. Oliy o'quv yurtlarida bunday uslubiyotning ishlab chiqilmaganligi ijrochilik san'ati bo'yicha ta'limning sifatiga, pedagogik tayyorgarligiga salbiy ta'sir etadi. Uslubiyot tushunchasi o'qituvchilik nuqtai nazaridan qaraganda ikki xil ma'noda ishlatiladi: – uslubiyot - o'quv yurtlarida olib boriladigan nazariy kurs, o'quv fani sifatida; – uslubiyot - o'qituvchining ish uslubi va shakllari sifatida. Uslubiyot haqida gapirilganda, ta'limning asosiy ob'ektiv va sub'ektiv omillari yig'indisidan kelib chiqish kerak. Uslubiyot ta'lim amaliyotining samarali uslublarini o'rganish asosida ishlab chiqiladi, ilmiy-nazariy izlanishlar jarayonida amaliyotda asoslash va umumlashtirish natijasida hosil qilinadi. Pirovardida ikkita asosiy uslubiyot hosil bo'ladi: ya'ni umumiy uslubiyot va maxsus uslubiyot. Umumiy uslubiyot ta'lim jarayonining o'ziga xos 40 xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Maxsus uslubiyot esa ta'limning maxsus bilim ko'nikmalarini tezroq egallash uslubi va shakllarini ishlab chiqadi. Xalq cholg'ularida ijrochilik uslubiyotini takomillashtirishni quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Zamonaviy umumiy va musiqiy pedagogika, psixologiya va didaktika masalalarini chuqur o'rganish.
2. Maxsus uslubiyotlar natijalarini, dars berish tajriba-larini o'rganish va umumlashtirish.
3. Oldingi maktablar hamda yo'nalishlarni tanqidiy tahlil qilish, buning natijasida zamonaviy ta'lim rivoji tamoyillarini ishlab chiqish.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz kerakki, bugungi kunda zamonaviy talablarga javob beruvchi o'zbek xalq cholg'ularini o'qitish uslubiyotini, ta'limning har bir bosqichiga (boshlang'ich, o'rta, oliy) alohida, o'ziga xos ravishda yondashib, kelajakda yangi avlod adabiyotlarini yaratgan holdagina kasbiy tayorgarlikning sifatini

ta'minlashimiz mumkin. Birinchi navbatda, musiqiy maktablar, ixtisoslashgan san'at maktablari va oliy o'quv yurtlari uchun zamonaviy talablarga javob beruvchi o'quv dasturlarini yaratish va ijrochilik san'ati madaniyatini yuqori saviyada tarbiyalash masalalarini hal etishimiz lozim bo'ladi.

O'zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish - milliy musiqiy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi. Musiqiy cholg'ular azal-azaldan o'zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, cholg'u ijrochiligi san'ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmda, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Uning barcha o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini o'rganish esa cholg'u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi.

Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiy va boy tarixga ega. Musiqa san'atida dastlabki zarbli (membranofon) cholg'ular eramizdan oldingi o'n uchinchi ming yillikda paydo bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday cholg'ular qadimgi mehnat qo'shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli (idiofon) cholg'ular paydo bo'ldi. "Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga hos takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirar edi. Shu sababli zarbli cholg'ular eng qadimgi cholg'u asboblari turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlari bilan bog'liq. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o'zining tuzilishi, tovush hosil qilishi, ijro va ifoda imkoniyati jihatidan xilma-xil zarbli cholg'ularning turlari shakllangan"[3].

Taniqli olim T.Vizgoning ma'lumotiga ko'ra mudovara (tarelka) harbiy cholg'ular qatoridan ham o'rin olgan. Misli mudovara (sanj)lar ham meloddan uch ming yil oldin ma'lum bo'lsa-da, zamonamizgacha xuddi doyra cholg'usidek o'z shaklida etib kelgan. Zarbli cholg'ular - doyra, debu, daff, daz, dov, sanj, go'lachalar meloddan ikki ming yil muqaddam (nisoniylar davri) vujudga kelib, turli shakllari, tuzilish va zarblari bilan takomillashib bizgacha etib kelgan.

Doyra va sanj cholg'usining tarixi ijro etilish usullari haqida musiqashunos olim T.Vizgo fikr yuritib, sanj cholg'usining o'rtasidan tasma o'tkazilib chalinganligini va hozirgi davrda ham xuddi shunday uslubda ijro etilishini ta'kidlaydi.

"Samarqandning Urgut tumani Mo'minobod qishlog'idan topilgan miloddan besh ming yil oldin suyakdan ishlangan va beshta qo'l bilan bosib ijro etiladigan teshikka ega bo'lgan nay qisman saqlangan bo'lib, o'sha davrda bunday tovush ko'lamiga ega bo'lgan cholg'uda qanday

kuylar ijro etilganligini tasavvur qilish mumkin. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to'liq cholg'u sifatida etib kelmagan bo'lsada, ilmiy manbalarda tasviri tushirilgan bu cholg'ular paleolit davriga to'g'ri keladi. Shuningdek, ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat beradi"[4].

XX asming 20 -30 - yillaridayoq o'zbek xalq ustalaridan Usmon Zufarov, Matyusuf Xarratov, Shorahim Shoumarov va boshqalar xalq cholg'u asboblari takomillashtirish yo'lida dastlabki ishlarni qildilar. Ular sado kuchini oshirish va sifatini yaxshilash, tashqi bezakni ko'rkamlashtirishga intildilar. Sadoni kuchaytirish o'sha davr sozlarini takomillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad bo'lgan. Sadoni takomillashtirish uchun turli usullar sinab ko'rildi — sozning korpusi shakli o'zgartirildi, dutor, tanbuming ichki qismi ikki yoniga qo'shimcha rezonatsiyaga mo'ljallangan torlar tortildi, biroq parda bog'lamlari, tovush qurilishi va tovushqator o'zgarishsiz qolaverdi. Yoki tanbur dastasi yuqonsiga'yoxud g'ijak korpusi ostiga yog'och og'iz o'rnatildi-ki, bu, konstruktorlarning fikricha, sadoni kuchaytirishga xizmat qilishi lozim edi. Soz ustasi Usmon Zufarov 1927-yilda radio qoshidagi milliy cholg'u asboblari ansambli buyurtmasi bo'yicha katta dutor, kamayli dastaning yuqori qismida og'iz bo'lgan, tanbur hamda korpusning quyi qismida og'iz bo'lgan g'ijak yasadi. Ular soz sadosini kuchaytirishga urinib, tovushqatori, torlarning sozlanishi, diapazoni, yasash usuli va boshqa xususiyatlari an'anaviyligicha qolgan cholg'u asboblari yaratishdi. Usta Usmon Zufarov 1934- yilda V. A. Uspenskiy taklifi bilan San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida o'zbek milliy cholg'u asboblari takomillashtirish bo'yicha ishga rahbarlik qila boshladi. Usmon Zufarov shogirdlari Hoji Oxun, Mahmud Toirov va boshqalar bilan o'z amaliy tajribasiga, shuningdek o'tmish xalq ustalarining bag'oyat boy an'alariga tayanib ish ko'rdi. Uning tomonidan konstruksiyalangan takomillashtirilgan yangi cholg'u asboblari namunalaridan an'anaviy xalq cholg'u ansambllarida foydalanilmoqda. N. Avedova o'sha davr xalq ustalari faoliyati haqida gapirib: "ular ko'p narsani uddalay olmadilar; tajribalar ba'zan oddiy bo'lgandi, biroq ularning jasoratli va o'ziga xos, deb hisoblamay bo'lmaydigan izlanishlari bu sohada keyinchalik ish olib borish uchun qiziqarli material berdi", — deb yozgandi"[5]. Usmon Zufarov va boshqa xalq ustalari tomonidan o'tkazilgan tajribalar asosan sozning sadosini kuchaytirishga qaratilgandi. Buni usta O'zbekiston Oliy Soveti Raisi Yo'ldosh Oxunboboyevga 1939- yilda yozgan maktubidagi jumlar ham tasdiqlaydi: "Men yaratgan ko'plab cholg'u asboblari o'zbek klassik kuyi — "Shashmaqom"ni ijro etishga yaraydi, biroq ravnaq topayotgan zamonaviy san'at talablariga javob berolmaydi. Dutor, rubob va g'ijak singari cholg'u asboblari parklar, klublar, teatrlar va konsert zallarida emas, balki yopiq binolarda yaxshi sado beradi. Ularni qayta yaratish zarur bo'lib, bu ustalarning ijodiy ishi bilan bog'liq. Bizning baxtiyor davrimizda har bir mehnatkash bunyodkorlikka intiladi. O'zbekistonning 15-yilligiga dutor, tanbur va g'ijakning yangi konstruksiyasini yaratildi. Shaklan yevropacha cholg'u

asboblari (skripka va gitara)ni eslatuvchi ayrim detallarni konstruksiyalab, kiritildi. Yangi konstruksiyadagi sozlarda sado eski namunadagilamikiga nisbatan kuchliroq va tozaroq bo'lishi lozim"[6].

“Ustani sozlar sadosini kuchaytirish va sifatini oshirish masalasi qiziqtirgani uning ushbu maktubidan ma'lum bo'ladi. Bayon etilganlardan ko'ri- nishicha, cholg'u asboblari sadosini kuchaytirish ularni takomillashtirishning asosiy muammosi hisoblangan. Bu holni tajriba laboratoriyasining cholg'u asboblari muzeyidagi kolleksiya ham tasdiqlaydi. Kolleksiya o'sha davr ustalari sadoni kuchaytirish maqsadida sozning tashqi shakli ko'rinishini o'zgartirish ustidagina ish olib borishganini ko'rsatadi”.

Xulosa. Zamonaviy an'anaviy o'zbek cholg'u asboblari bag'oyat rang-barang. Ular orasidan barcha guruhlariga oid sozlar namunalarini topish mumkin. Hozir O'zbekistonda taomilda bo'lgan xalq cholg'u asboblari quyidagi guruhlariga bo'linadi: — torli asboblar, torli-kamonchali (g'ijjak, sato), torli-chertma (dutor, tanbur, qashqar va afg'on ruboblari, ud, do'mbira) va torli-urma (chang) sozlarga bo'linadi; — puflama (duxovoy) asboblar, mis-puflama (karnay) va yog'och-puflama (nay, sumay, qo'shnay, bulaman, cho'pon nay, sibizg'a)dan iborat; — urma asboblar (doira, nog'ora, safoil, qayroq, qoshiq). An'anaviy ijrochilik madaniyati vakili bo'lgan xalq sozandalari asosan temperatsiyalanmagan diatonik tovushqatorli an'anaviy cholg'u asboblarida kuy ijro etishadi. Bu asboblarda asosan an'naviy xalq kuylari, shuningdek og'zaki an'anadagi professional kuylar ijro etilgan. Olis o'tmishda shakllangan xilma-xil turdagi cholg'u ansambllari havaskorlik jam oalarida ham, professional jamoalarda ham hozirgacha mavjud bo'lib kelmoqda. Ulami madaniyat saroylari va uylarida, konsert zallarida, radio va televideniyeda tinglash mumkin. O'zbek xalqi bizning kunlarga yetkazib kelgan boy musiqiy meros xalq ijodiyotini ham, xalq-professional ijodiyotini ham og'zaki yetkazish yo'li bilan saqlab qolingani. Hozirgi bosqichda milliy cholg'u asboblari sadosi sifatini og'zaki an'anadagi ijrochilik orqali yaxshilashga urinishlar an'anaviy sozlarni muntazam takomillashtirish jarayoni bo'lib, obyektiv, ijobiy qabul qilinadigan va an'anaviy musiqa sozandalari tomonidan o'z amaliyotida qabul qilinadigan hodisadir. Hatto turmush sharoiti taqozosi bilan xalq cholg'u an'analarining amal qilishi bo'yicha tabiiy im koniyatlar saqlanib qoladigan mintaqalarda ham milliy cholg'u asboblari tarixiy rivojlanishining turli davrlarida ulaming yozma an'anadagi professional akademik musiqa ijrochilari bilan aloqasi, “apparat postanovkasi, o'yin uslublari va eng ko'p darajada yaqinlashtirilgan badiiy ifodalash usullari kuzatiladi”, deb hisoblaydi ukrain folklorchisi M. Xay.

Fydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayev O'ktam Oripovich “Cholg'u ijrochiligi va ansambli” Respublika oliy o'quv yurtlari bakalavriatining 5111100 — “Musiqa ta'limi” yo'nalishidagi talabalari uchun o'quv qo'llanma. 2019, 20 – 30 betlar.

2. R.Gruber Istoriya muzikalnoy kulturi. -M.,1941 (tom 1,chast pervaya),139 bet
3. S.B.Saidiy. Cholg'ushunoslik va cholg'ulashtirish asoslari.-Darsligi. "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent- 2016, 25 betlar
4. B.Saidiy. O'zbek xalq cholg'ulari uchun partitura va klavirlar. "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent- 2015.
5. Usmonov E. "Olam nurga to'ladi...". T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. 68- bet.
6. Viktor Aleksandrovich Uspenskiy (1879-1948) — O'zbekiston va Tojikiston xalq artisti, san'atshunoslik fanlari doktori, butun umrini O'rta Osiyo xalqlari musiqiy madaniyatini rivojlantirishga bag'ishlagan ma'rifatparvar olim.
7. Н. Аведова — Искусство оформления узбекских народных музыкальных инструментов. Ташкент. 1956. С, 586.